

NATYURMORT JANIRIDA KOMPAZITSIYANING ILMIY AXAMIYATI

Saidova Iroda Alisherovna

Namangan davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Natyurmort janirida kompozitsiyaning ilmiy axamiyati haqida batafsil bayon etilgan.*
Kalit so'zlar: *kompozitsiya, rang-tusi, perspektiv, simmetrik ritm.*
Kirish:

Natyurmort . Ma'lumki, natyurmort tasviriy san'atning mustaqil, asosiy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maktab tasviriy san't darslarida ham va oily ta'lim darslarida ham eng ko'p chizganimiz bu – natyurmort va uning elementlaridir. Men yana natyurmortlarga murojaat qildim. Buning boisi esa, oddiy natyurmortni juda yoqtiraman. BMIda natyurmort chizish bilan birga natyurmort haqidagi nazariy bilimlarimiz ham aks etishi lozim. Shuning uchun quyida natyurmortning janr xususiyatlari xususida va natyurmortchi musavvirlar haqida fikr yuritaman. Ma'lumki, natyurmort fransuzcha so'zdan olingan bo'lib "jonsiz tabiat" degan ma'noni anglatadi. Natyurmort asosan dastgohli rassomlik (rangtashvir va grafika) da, qisman haykaltaroshlikda (asosan rel'efda) ishlatiladi. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon bo'ladi. Natyurmort ishlanayotganda buyumlarni bo'yoqlariga qarab, uni ochlik yoki to'qlik miqdorini rangidan yaqqol ajrata bilishni hisobga olish zarur. Masalan: oq narsalar qora fonda juda yaxshi ko'zga tashlanadi va aksincha, qoramtir narsalar oq devor fonida yaqqolroq ko'rinadi. Tus tonalligi qaramaqarshiligidan tashqari ranglarni bir-biriga nisbatdan zidligini ham farqi bor. Issiq bo'yoqlarda ranglar bir-biriga zid bo'lib ko'rinishi tabiiy hol, masalan, to'q qizil fonida jigar rang buyum. Xuddi shuningdek, sovuq bo'yoqlarda: to'q ko'k rang fonida yorqin moviy buyum. Issiq-sovuqlik qoidasi bo'yicha ishlanga natyurmortlarning ranglari ham keskin farqlanadi hamda qo'shimcha ranglar fonida yorqin ranglar qarama-qarshiligi ham keskin farqlanadi: yashil fonda qizil rang; binafsha fonda sariq rang; jigar rang fonda ko'k rang bunga misol bo'la oladi. Agar natyurmort ranglar qarama-qarshiligida ishlangan bo'lsa, unda 1-2 bo'yoqli ta'kidlar kiritiladi, ya'ni kichikroq buyumlar yorqin yoki bezaklar bilan ishlanadi. Bu buyumlarni taqqoslash uchun zarur, shunda boshqa ranglar bir muncha murakkab hal qilinadi. Ranglari bir-biriga o'xshash natyurmortda yorug'lik va qorong'ulik qonuniga rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Natyurmort yorqin bo'yoqlarda chiqishi uchun boshqa hamma ranglarni oqartirib yubormaslik va haddan tashqari qoraytirib yubormaslik kerak. Bu vazifa yondan tushadigan yorug'lik bilan uddalanadi, u yorug'lik tushayotgan tomondan soyalarga munosib rang tussini berib ko'rsatishga imkon yaratadi, bu o'z navbatida talabning hajmiy fikrlashiga yordam qiladi. Yondan tushadigan

yorug'lik yoqimli yoki xira rangga ega bo'lgan, hamma narsalarni yoritadi: agar yondan tushadigan yorug'lik tussiz bo'lsa, hamma narsalar nurda sovuqroq ko'rinadi va ranglar qarama-qarshiligi qonuniga ko'ra, butun soya issiqroq bo'lib qoladi (issiq yoritilganda esa aksincha sovuq bo'lib ko'rinadi). Aks etish (refleks) narsalar o'rtasida ranglar aloqasini o'rnatadi. Tushayotgan soyalar ham narsalarning yorqin bo'yoqlariga o'ralishda qatnashadi. Bu omillarning hammasi natyurmortning aloxida bo'laklarining o'z ranglarini birlashtiruvchi muhitni vujudga keltiradi va umumiy uyg'unlikda, joziba yaratishda qatnashadi. Birinchi topshiriqda tanishtirish vazifasini bajarib, u talabani kasb tayyorgarligi saviyasini aniqlab beradi va o'quvchi bilan ishlashda o'qituvchi oldiga muayyan vazifalarni qo'yadi. unga erishish uchun amaliy mashg'ulotlarda talabalar avvalo grizayl texnikasini o'zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun berilgan natyurmort qismlari tusining to'qlik yoki ochlik darajasini aniqlash eng muhimi sanaladi? Asosiysi diqqatini tasvirning qaysi qismlari kontrast tonlarda va qay darajadan iborat ekanligiga qaratishimiz zarur, hamda qiziqarli joy qayerda? kabi savol bilan ishni boshlang'ich bosqichida bu muammolar yechimini izlanib topish kompozitsiyaning asosiy g'oyaviy markazini aniqlab olishga yordam beradi. O'zbek tasviriy san'atida natyurmort usullari qadimgi davr san'atida (masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi meva), miniatura san'atida (masalan, K.Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar siyohdon, qamchi va boshq) uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30-50-yillariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo'ldi. L.Nasriddinov ("Nonli natyurmort"), Sh.Xasanova ("xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort"); M.Kazin, B.Rojdestvenskiy, V.Chorintsev, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, O.Totevosyan, S.Abdullaev, V.Fadeev, Yu.Elizarov va boshqalar natyurmort janrida sermahsul ijod qildilar. 60-80-yillarda L.Salimjanova, Yu.Talkin, R.Choriev, V.Burmakin, G.Meltinovlar ijodida natyurmort keng o'rin tutadi. Rassomlar R.Axmedov, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov va boshqalar natyurmortda samarali ijod qilib natyurmortning taraqqiyotini ta'minladilar. Bugungi kunda ham natyurmort tasviriy san'atning mustaqil janri sifatida gurkirab rivojlanmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xaitov E.X. Jumaniyozov SH.R. — Rangtasvir|| 1 bosqich talabalari uchun O'quv qo'llanma. T., —Info Capital Group|| 2018 y. 112 b. 70 nusxa.
2. Gilmanova N.V Yorug_lik va rang|| O_quv qo_llanma.Toshkent- 2012, S.288
3. Халилов Р.Ш. Учебное пособие «Акварель» Ташкент 2009 г. (5-16bet.)